

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
АРХЕОЛОГИЯ ВА БУХОРО ТАРИХИ КАФЕДРАСИ

БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ
(Энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

мавзусида Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2024 йил 10 май

Бухоро – 2024

Илмий-амалий анжуман Бухоро тарихи, манбашунослиги, тарихшунослиги, археологияси, этнографияси, нумизматикаси, шаҳарсозлиги, маданият ва санъати соҳаларида амалга оширилётган энг янги илмий натижаларни илмий жамоатчиликка етказиш, фан ва таълимнинг узвий боғлиқлигини кучайтириш мақсадида Бухоро давлат университетида **2024 йил 10 май** куни **“БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИ”** (ЭНГ ҚАДИМГИ ЗАМОНЛАРДАН ҲОЗИРГАЧА) мавзусидаги Республикао миқёсида илмий-амалий конференция белгиланган тадбирларни амалга ошириш мақсадида ўтказилди.

Ушбу илмий тўплам кенг илмий жамоатчилик, Бухоро тарихи билан қизиқувчилар, тарихчилар, магистрантлар ва талаба ёшларга мўлжалланган

Масъул муҳаррир:

БухДУ профессори, тарих фанлари доктори

Ҳ.Ҳ.Тўраев

Таҳрир хайъати ва аъзолари:

О.Х.Хамидов - Бухоро давлат университети ректори, и.ф.д., профессор

Т.Х.Расулов - илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, ф.ф.д., профессор

А.А.Болтаев - Тарих в юридик факультети декани, ф.ф.д., доцент

Ф.У.Темиров - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири, т.ф.ф.д (PhD) доцент

С.И.Иноятов – Бухоро давлат университети профессори, т.ф.д.

М.И.Ниязова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

М.Б.Қурбонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

Ф.Ҳ.Бобоҷонова - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.н

А.Ҳ.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси доценти, т.ф.ф.д (PhD)

Б.Б.Болтаев - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси, т.ф.ф.д (PhD)

О.И.Ражабов - Археология ва Бухоро тарихи кафедраси катта ўқитувчиси,

Ш.Ў.Носиров – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси,

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчилар:

Темиров Ф.У. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси мудири

Умаров Б.Б. – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Носиров Ш.Ў – Археология ва Бухоро тарихи кафедраси ўқитувчиси

Мазкур тўплам Бухоро давлат университети Илмий Кенгашининг 2024 йил 4 майдаги
9 – сонли қарори билан нашрга тавсия қилинган.

Илмий-амалий анжуман материалларида ёритилган тарихий жараёнлар, маълумотлар, чиқарилган хулюсалар, манба ва адабиётлар учун муаллифларнинг ўзлари масъул ва жавобгардир

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

Xullas kalom 5000 sonli Buxoro yahudiyalaridan Germaniyaga o`quvchi yuborilishi tabiiy hol edi.

Germaniyaga o`qish uchun yuborilgan o`quvchi va talabalarning ijtimoiy kelib chiqishi (qaysi tabaqaga mansubligi) tahlil etilar ekan, ular ro`yxati bilan bog`liq jadvalda Mirzo, savdogarlar, ishchi, dehqon kabilar bilan qayd etilgan bo`lib 44 nafar o`quvchi va talabalardan faqat 2 nafari haqida ya`ni Vali Qayumxon va Olimjon Qodirov bilan bog`liq ma'lumotda “zodagon” deb qayd etilgan. Biroq tarixiy manbalarda 1922-yilning yozi va kuzida Germaniyaga o`qish uchun yuborilgan talabalarning aksariyati sag`irxona (yetimxona) dan chiqqanligi yoxud 1921-yil Buxoro shahrida ochilgan “Avlod shuxado” (“Azoblangan qahramonlar bolalari”) maktabining o`quvchilari edi.¹-deb ko`rsatilganligini ham unutmaslik kerak. Ehtimol yetim bolalarning otalari hayot bo`lgan paytda biz yuqorida qayd etgan aholi toifalari (stratlar) ga mansub bo`lgan bo`lishi mumkin.

BXSR Germaniyaga o`qish uchun yuborgan o`quvchi va talabalarning yosh senzi ham Turkiston ASSR, XXSR talabalaridan farq qilib, yuborilganlarning barchasi balog`atga yetmagan edi. Turkiston talabalari 17-18 yoshdan kichik bo`lmagan bir paytda Buxoro talabalari orasida 10, 11, 12, 13, 14, 15 yashar bolalar ham bor edi. Ushbu jihatni Turor Risqulov bir qadar tanqidga olsa, Olimjon Idrisiy oqlaydi. Buxoro Respublikasi faqat oliv ma'lumotli emas, zamonaviy texnik, iqtisodiy bilimlarga ega bo`lgan o`rta maxsus ma'lumotli kadrlar tayyorlashni nazarga tutganligi Olimjon Idrisiy tomonidan bayon etilgan.²

Germaniyaga yuborilgan Buxoro o`quvchi va talabalarning yoshi haqida fikr bildirilar ekan, eng yoshi kichik Xolmurod Hojiyev bo`lib, u o`qish uchun xorijga yuborilganda bor – yog`i o`n yoshda bo`lgan. Shuningdek, Abror Rashid o`n bir yoshda, Qavmuddin Karomiddinov 14 yoshda bo`lgan. Eng Yoshi kata bo`lgan talaba Ahmadjon Shukriy edi. Uning yoshi 1922-yilda 23-yoshda bo`lib, Berlin Universiteti Adabiyot fakultetiga o`qishga kirgan. Bir umr Germaniya va Turkiya davlatlariga qolib ketgan Vali Qayumxon (1904-1993-yillar) 18 yoshda, Ahmad Naim Nusratillobek (O`qoy) (1900-1922-yil) 22-yoshda edi.

Xulosa qilib aytganda 1922-yilda Germaniyaga o`qish uchun yuborilgan o`quvchi va talabalar turli millat vakillari, turli toifa a`zolari va bir biridan yoshlari keskin farq qiluvchi shaxslar edi. Ular orasida qizlar deyarli yo`q bo`lib birgina tatar qizi Sulton Banat Shirmatova bor edi.

ARXIV HUJJATLARIDA BUXORO KONCHILIK VA GEOLOGIYA TEXNIKUMI FAOLIYATI

Murodova Dilrabo Shomurodovna
BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasи
katta o`qituvchisi, tarix fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD)
dilrabo.murod82@mail.com

XX asrning ikkinchi yarmida Buxoro viloyatida sanoatning energetika, kimyo, konchilik, neft-gaz sohalariga asos solinib, yengil sanoat, mashinasozlik, sanoat materiallarini qayta ishslash va tayyorlash, uy-joy hamda ip-yigiruv kombinati va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari ham rivojiana boshladi. Shuningdek, hududning iqtisodiy taraqqiyot rejasiga Navoiy, Gazli, Zarafshon shaharlari hamda Buxoro-Ural gaz quvuri, Navoiy kimyo kombinati, Amu-Buxoro kanalining bunyod etilishi, Gazli-Qorovulbozor massivlarida gaz va neft qazib olishni ko`paytirish, Buxoro-Kogon, Navoiy-Qiziltepa sanoat tumanlaridan tashqari G`ijduvon-

¹ BVDA.546-fond. 1-ro`yxat 4-yig`ma jild, 4-varaq, 43-yig`ma jild.10,11-varaqlar.

² Qarang.Turor Rasulov. Germaniyaga O`rta Osiyo talabalar //Ozod Buxoro ,26-son 1923-yil 19-dekabr, O.Idrisiy, Axmad Naim, Afzal Abusaid: Tahsis va izoh // Ozod Buxoro, 67-son 1924-yil 27-mart.

Бухоро тарихи масалалари (энг қадимги замонлардан ҳозиргача)

Qiziltepa, Qorako‘l-Olot sanoat tumanlarini tashkil etish soha rivojida asosiy o‘rin egallagan mutaxassislar tayyorlash zaruriyatini yuzaga keltirdi¹.

1965-yilda respublikada jami 83 ta kunduzgi va 23 ta kechki o‘rta maxsus ta’lim muassasalari faoliyat ko‘rsatgan. Qurilish va sanoat sohasida 44 ta, qishloq xo‘jaligi bo‘yicha 18 ta, tibbiyot va ta’lim yo‘nalishida 27 ta, madaniyat va kinematografiya sohasida esa 10 ta ta’lim muassasi bo‘lib, ularda 103,9 mingdan ortiq talaba tahsil olgan. Shundan 48,1 ming talaba ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o‘qigan².

O‘zbekiston SSR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 1966-yil 12- apreldagi 110-son buyrug‘iga asosan Buxoro Konchilik va geologiya texnikumi tashkil qilinadi³. Ta’lim muassasi asosan xalq xo‘jaligining neft va gaz sanoati kon va geofizika xizmati uchun kadrlar yetkazib bergen. 1970-1971-o‘quv yilida texnikumning kunduzgi bo‘limida 374 ta talaba ta’lim olgan bo‘lib, jami 14 ta guruh shakllantirilgan bo‘lsa, 1971-1972-o‘quv yilida esa jami 16 ta akademik guruhda 403 nafar talaba kunduzgi bo‘limda tahsil olishgan. Ta’lim dargohi Buxoro shahar Lenin ko‘chasidagi 141-uyda joylashgan bo‘lib, o‘quv binosi jami 16 ta auditoriyadan iborat bo‘lgan. O‘quv muassasasi o‘z labaratoriyasiga ega bo‘lmaganligi uchun maxsus fanlar, elektrotexnika, fizika, radiotexnika guruhlari uchun amaliyot darslarini tashkil etilmaganliqiarxiv hisobotlarida aks ettirilgan. Amaliyot va labaratoriya darslari “Buxoroneftgaz”, “Buxoroneftgazqidiruv” tresti, G‘arbiy O‘zbekiston dala-geofizik ekspedisiyasi hamda Toshkent Politexnika institutining Buxorodagi kechki umumtexnika fakultetida olib borilgan. Bundan tashqari, texnikum talabalari uchun yotoqxona va o‘qituvchi pedagoglarga turar joylar berilmaganligi muammolari ham mavjud bo‘lgan. “Buxoroneftgaz” tashkilotiga qarashli 75-son bilim yurtidan talabalarga yotoqxona uchun joy ajratilgan, biroq undagi sharoitlar qoniqarli bo‘lmaganligi hujjatlarda qayd etilgan⁴.

O‘quv rejasiga ko‘ra ta’lim dargohida 0102 - “Neft va gaz konlarining geologiyasi va qidiruvi”, 0104 - “Quduqlarning geofizik tadqiqot usullari”, 0209 - “Neft va gaz quduqlarini burg‘ulash”, 0210 - “Neft va gaz quduqlarini ekspluatatsiya qilish” mutaxassisliklari uchun 27 ta o‘quv hamda 11 ta labaratoriya xonalari ajratilgan. Muassasada jami 41 ta o‘qituvchi, shundan 11 tasi doimiy shtatdagi, bundan tashqari, 3 ta labarant va 1 ta karataj bo‘yicha usta faoliyat yuritgan. Labarantlar S.Nasakin, K.Seleznevlar tomonidan AKS-4, AYEKS-900, OKS-56 va AGKS-55/59 stansiyalarida montaj ishlari olib borilgan. Mohir pedagoglar N.F.Rachkov, I.R.Yakubov, R.M.Arutyunyanlar Buxoro pedagogika institutining eng iqtidorli bitiruvchilar sifatida texnikumda foliyat yuritib, talabalarga kasb-hunar sirlaridan saboq berishgan. Texnikumda ta’lim o‘zbek va rus tillarida olib borilgan⁵.

Geologiya o‘quv amaliyotlari uchun o‘quv bazasi bo‘lib Tojikistoning Panjikent shahri yaqinidagi “Taror” punkti hisoblanganligi muassasa hisobotlarida qayd qilingan. 1970-1972-yillarda texnikumning amaliyotlari viloyatlar va qo‘sni respublikalardagi trest va boshqarmalarda olib borilgan. Jumladan, “Buxoroneftgazqidiruv”, “Qarshineftgazqidiruv”, “Qaraqalpoqneftgazqidiruv” trestlari, “Buxoroneftgaz” tashkiloti, Buxoro burg‘ulash ishlari boshqarmasi, Qozog‘iston SSR neft va gaz ishlab chiqarish boshqarmasi, Tojikiston SSR ministrlar Soveti huzuridagi Geologiya boshqarmasi, Ukrainianadagi “Dneprogeofizika” tresti, Ustyurt, Andijon geofizika ekspedisiyalari, “O‘zbekneft” birlashmalarida talabalar amaliyot o‘taganliklari hujjatlarda aks ettirilgan⁶. Ta’lim muassasasi o‘n yil davomida tog‘-kon sanoati rivoji uchun zarur bo‘lgan o‘rta ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlab berishda mintaqadagi yetakchi o‘rinni egallaganligi Buxoro viloyat davlat arxivi hujjatlarida aks etgan. Biroq kasb-

¹ Бухарская областная партийная организация в цифрах и документах / Сборник статистических материалов 1920-1990 гг. Авторы и сост.: Вахидов М.А., Касымов Ф.Х., Рахматуллаев М.А. и др. – Ташкент: Узбекистан, 1990. – С. 183-194.

² Народное хозяйство Узбекской ССР за 50 лет / Статистический сборник. – Ташкент: Узбекистан, 1967. – С. 219.

³ BVDA, 1222-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘majild, 2-varaq.

⁴ BVDA, 1222-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘majild, 5-varaq.

⁵ BVDA, 1222-fond, 1-ro‘yxat, 10-yig‘majild, 4-varaq, 15-varaq.

⁶ BVDA, 1222-fond, 1-ro‘yxat, 11-yig‘majild, 22-24-varaq.

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

hunar ta'limi sohasidagi islohotlar natijasida 1976-yil 11-avgustda O'zbekiston SSR Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 372-sont buyrug'iga muvofiq 1-sentabridan boshlab Rejaliq iqtisod texnikumiga aylantirilgan.

Mustaqillik yillarda ham muassasa faoliyatida o'zgarishlar davom etib, yangi yo'nalishlarga asos silingan. 1992-yil 13-yanvardan Tijorat texnikumi, 1992-yil 234-sont buyruq asosida Iqtisodiyot va bank kolleji, deb nomlanib, viloyat hokimining 2005-yil 5-avgustdagı 139-sontli qarori bilan kasb-hunar maqomi berilgan.

Statistik ma'lumotlariga qaraganda hozirda Buxoro viloyatida jami 20 ta kasb-hunar maktabi, 8 ta kollej hamda 14 ta texnikumlar faoliyat ko'rsatib, ularda 1709 nafar pedagoglar faoliyat olib bormoqda. Ayni damda ta'lim muassasalari va viloyat davlat arxivsi o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirib, mustaqillik davri tarixi aks etgan ma'lumotlarni doimiy saqlovdagi hujjatlar tizimiga kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki hozirda arxivga qabul qilinayotgan viloyat ahamiyatidagi tashkilot, korxona va muassasalarining hujjatlarini jamlash, fondlarni shakllantirish hamda ularni muhofaza qilgan holda kelajak avlodlarga yetkazish borasidagi barcha imkoniyatlar Buxoro viloyat davlat arxivida mavjud.

БУХОРОНИНГ ФАШИЗМ УСТИДАН ҚОЗОНИЛГАН ҒАЛАБАГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ

Рашидов Ойбек Расулович

*Toшкент давлат иқтисодиёт университети,
тарих фанлари доктори (DSc), профессор*

1941 йилнинг 22 июн куни тонгига фашистлар Германияси Совет Иттифоқига хужум қилди. Бошланган уруш мамлакат ҳаётининг барча жабхаларида ўзгаришлар қилишни, кучли мудофаа учун катта куч-ғайрат сарфлашни талаб этарди. Бироқ совет давлатининг юқори ҳокимият эшелонida дастлаб саросималик кўзга ташланди. Faқat 1941 йил 29 июндангина ВКП (б) Марказий Комитети ва СССР Xалқ Комиссарлари Советининг маҳсус директиваси орқали жойларга кўрсатмалар жўнатилиб, унда уруш аҳволни кескин ўзгартириб юборганлиги, Ватан жиддий хавф остида қолганлиги, барча ишларни ҳарбий изга солиш учун тез ва қатъий равишда қайta қуришни амалга ошириш зарурлиги кўрсатиб ўтилди. Кўрсатмаларнинг асосий талаби “Ҳамма нарса – фронт учун, ҳамма нарса – Ғалаба учун!” деган чақирикда ўз ифодасини топган эди.

1941 йил 30 июнда ВКП (б) МК Бош котиби ва СССР Xалқ Комиссарлари Совети раиси И.В.Сталин бошчилигига СССР Давлат Мудофаа Комитети (ДМК) ташкил топди. ДМК қўлида бутун давлат, ҳарбий ва партиявий ҳокимият тўпланган эди. Бошланган уруш шароитида совет қуролли кучларига стратегик раҳбарликни амалга оширувчи фавқулотда орган сифатида Stalin бошлиқ Олий Бош қўмандонлик қароргоҳи ташкил этилди. 8 августда Stalin СССР Қуролли кучлари Олий Бош қўмандони лавозимини қабул қилди.

Олий Бош қўмандоннинг 1941 йил 16 августда 270-сонли буйруқни эълон қилди. Унга биноан урушда асир тушганлар ўта кетган дизетирлар (ҳарбий хизматни ташлаб кетган қочоқлар) деб эълон қилинди, уларнинг оила аъзолари эса “қасамёдни бузганлар ва Ватанини сотганларнинг оиласи сифатида қамаш”га маҳкум этилди.

Иккинчи жаҳон уруши даврида республикамизга раҳбарлик қилган Ўзбекистон Компартияси Марказий Комитетининг биринчи секретари Усмон Юсупович Юсупов (1900-1966) ўзбекистонликларни фашизмга қарши курашга сафарбар қилишга бош-қош бўлди.

Уруш йилларида юксак ватанпарварлик бурчини адo этган ўзбек халқи фашизмдан фақат СССРни эмас, энг аввало, Ўзбекистонни химоя қилишни мақсад қилиб қўйган эди. Урушнинг биринчи кунларидан бошлаб то охиригача ўзбекистонлик жангчилар унда жуда фаол қатнашдилар. Тарих уларнинг мардлиги, қатъияти ва фидокорлиги ҳақидаги хотираларини ўтмиш, бугунги ва келажак авлодлар учун мангу сақлаб қолади.

Республика миқёсидаги илмий-амалий конференция

Shuxrat Yodgorovich Qudratov. BUXORO AMIRLIGIDA TADBIRKORLIKNING IPAK VA TO'QIMACHILIK SOHALARI FAOLIYATIGA DOIR AYRIM MA'LUMOTLAR	435
Userbayeva Feruza Inoyat qizi, Kamoliddinov Farrux Burxoniddin o'g'li. BUXORODA JADIDCHILIK HARAKATINING NAMOYONDALARI (SADRIDDIN AYNIY MISOLIDA)	437
Ergashev Suxrob Muxiddinovich. SOVET DAVRIDA BUXORO MAORIFI MASALASI	439
Д.Р.Норова. П.А. ГОНЧАРОВА “БУХОРО ЗАРДЎЗЛИК САНЬЯТИ” КИТОБИ ХУСУСИДА.....	442
О.А.Исаев. СУРХОН ВОҲАСИГА АНДИЖОН, ФАРФОНА ҲАМДА БУХОРО ВИЛОЯТЛАРИДАН КЎЧИБ КЕЛГАНЛАР ВА ҚУЛОҚ ҚИЛИНГАН ҲЎЖАЛИКЛА ҲАҚИДА ҚИСҚАЧА МАҶЛУМОТ	443
Ризаев Бахтиёр Назарбоевич. БУХОРО ОБЛАСТИНИНГ ЯНГИ ЎЗЛАШТИРИЛГАН ЕРЛАРДА ТАШКИЛ ЭТИЛГАН ҲЎЖАЛИКЛАРИ ФАОЛИЯТИ	446
Utayeva Feruza Xolmamatovna. BUXORO TO'QIMACHILIK FABRIKASIDA KUTUBXONA, SPORT TO'G'ARAKLARI FAOLIYATI	448
Hayitov Shodmon Ahmadovich, Hasanova Habiba Yorqin qizi. BUXOROGA AVTOMOBIL, FUQARO VA HAVO TRANSPORTINING KIRIB KELISHI VA FLOTIYA TASHKIL ETILISHI TARIXIDAN	450
Қаҳрамон Кенжавич Ражабов. “Пахтакор” стадионидаги тартибсизликлар ҳамда ўзбек ёшларининг таъқиб этилиши (1969 йил апрель – сентябрь)	452
Murodova Dilrabo Shomurodovna. ARXIV HUJJATLARIDA BUXORO KONCHILIK VA GEOLOGIYA TEXNIKUMI FAOLIYATI.....	452
Haitov J.Sh. SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA BUXORODA PAXTACHILIK TARMOG'INING RIVOJLANISHI (Buxoro viloyat davlat arxivni ma'lumotlari asosida)	461
Nasilloyev Sunnat Shavkat o`g`li. O'ZBEKİSTON SSRDA ILM-FAN SIYOSATI (OLIY TA'LIMDAGI 1943 YIL ILMIY TADQIQOTLARI TADQIQOTLARI MISOLIDA.).....	463
M.B.Siddiqov. IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA HARBIY XIZMATCHILARNING OILASIGA KO'RSATILGAN GAMXO'RLIK (BUXORO VILOYATI MISOLIDA).....	466

6-ШЎЙБА. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎЗБЕКИСТОНДА ВА ХОРИЖДА БУХОРО ТАРИХИ МАСАЛАЛАРИНИНГ ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ; ЯНГИ ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР, НАШРЛАР ВА ИЗЛАНИШЛАР

137 Boltayev Bobir Baxtiyorovich. BUXORO NEFTNI QAYTA ISHLASH ZAVODI TARIXI MUZEYI FAOLIYATIDAN BIR LAVHA	470
3.А.Шамсиева. “РАХТЗАНОН” МАРОСИМИ ЭТНОГРАФИК ТАҲЛИЛИ (БУХОРО ВОҲАСИ МИСОЛИДА).....	472
Асрор Пардаев. ҚАШҚАДАРЁ ВОҲАСИДА АҲОЛИНИ ИСТЕМОЛИ МОЛЛАРИ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРЛИГАН ТАДБИRLАR	474
М.Ў.Юсупова. БУХОРОДА НИШОНЛАНАДИГАН БАЙРАМЛАРНИ ЎРГАНИШ БЎЙИЧА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	478
Nafisa Hayotova Zakirovna. BUXORODA TARIXIY YODGORLIKALARINING HOLATI VA ULARNI TA'MIRLASH MASALALARI	481
Жўраев Шерали Ғулом ўғли. ТАРИХ ИЛМИЙ БЎЛИМИДАГИ АРХЕОЛОГИК ЭКСПОНАТЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	486
Qurbanov Bekjon G'ayrat o'g'li. BUXORODAGI MIR ARAB MADRASASI TARIXI VA BUGUNGI KUNDAGI FAOLIYATI.....	489
Tuyev Fazliddin Erkinovich, Tolibjonova Muxlisa Behzodjonovna. BUXORO VILOYATINING SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ISLOH QILINISHI VA TASHQI ALOQALARI. (1998-2001-YILLAR).	492
Муртазина Д.Р., Муртазин Эмиль Рустамович. ИССЛЕДОВАНИЕ ИСТОРИИ БУХАРЫ: ПУТЕШЕСТВИЕ ЧЕРЕЗ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ	494